



**BOLANING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIDA TASVIRIY
FAOLIYATNING AHAMIYATI**

*Shahrisabiz Davlat Pedagogika Instituti
pedagogika fakulteti maktabgacha talim yo'nalishi
2-kurs 2.24 guruh talabsi*

Berdimurodova E'zoza Javlon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning har tomonlama rivojlanishining tasviriy faoliyatning ahamiyati o'rni haqida, maktabgacha talim muassasalarida tasviriy faoliyatga o'rgatishning maqsadi bolalarning qobiliyatlari va ijodkorlikni rivojlantirish haqida, tasviriy faoliyat turlari, maktabgacha yoshdagi bolalarga e'zma-hizdirishning vazifalari keltirib o'tilgan, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama – intellektual, estetik, emotsional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlari: Tasviriy faoliyat, ijtimoiy rivojlanish, estetik did, rasm chizish, emotsiya, ijodkorlik, sezgi, san'at, tarbiya.

Tasviriy faoliyat – bolalar bilan olib boriladigan ta'lim – tarbiyaviy ishning qismi sifatida. Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari boshqa ta'lim – tarbiyaviy ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyatga o'rgatishning maqsadi bolalarning qobiliyatlari va ijodkorligini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabrda "2017-2021-yillardagi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarning maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tupdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy talim dasturlarini tatbiq etish,



malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual ahloqiy , estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini, Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora- tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat bolaning har tomonlama rivojlanishida asosi o'rinni egallaydi . Tasviriy faoliya mashg'ulotlari davomida bolalarning tanlagan ranglariga , manzaraalariga qarab bolalarning oilaviy sharoitlarini ularning kayfiyatini emotsiyalarini bolishimiz mumkin. Masalan bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarning tanlagan ranglariga qarab ularning xulq atvorini bilib olsak bo'lidi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi, rangalar bilan to'g'ri ishlashni o'rganadilar. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari boshqa ta'lim – tarbiyaviy ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Mashg'ulot o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlaridan olgan bilimlariga tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar , rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin .Tasviriy faoliyat turlari bolalarni o'yini bilan ham bog'liq bo'lida. O'yin bola hayotida katta o'rin egallaydi . maktabgacha ta'lim muassasasidagi turli xil mazmunli- rolli , dramaslashtirish , didaktik va haraktli o'yinlar o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos . U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi , buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanish kerak .

Mashhur rus psixologi L.S.Vygotskiy tasviriy faoliyatni bolaning tasavvuri , emotsional dunyosi va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy vositadeb hisoblagan . Uning fikricha , bola rasm chizish jarayonida o'z kechinmalari va ichki dunyosini obrazlari orqali ifodalaydi , bu esa intellektual rivojlanishga kuchli ta'sir qiladi. V.A Suxomlinskiy pedagogning fikricha rasm chizish estetik didni , tasavvur



va go'zalikni ko'ra bilish qobiliyatini shaklantiradi bolani ma'naviy boyitadi. Tasviriy san'atni tarbiyaviy asosiy vositalaridan biri deb hisoblagan .

K.Ushinskiy tasviriy sanatni talimning ajralmas qismi deb bilgan .Rasm chizish orqali diqqat , kuzatuvchanlik va mayda motorika rivojlanishini namoyon qilishini asoslab bergan .

Tasviriy faoliyat turlari :

1. rasm chizish- bu atrof- muhitdagi predmet, hodisa yoki tasavvurdagi obrazlarini qalam, bo'yoq va boshqa grafik vositalar yordamida tekislikda tasvirlashga asoslangan ijodiy faoliyat turidir.

2. haykaltaroshlik-plastilin, loy xamir yoki boshqa yumshoq materilallardan foydalanib, hajmli shakl va buyumlar yaratishga qaratilgan tasviriy faoliyat turidir.

3. applikatsiya- turli materillarni (qog'oz, karton, mato, ip va boshqalar) kesish, qirqish va yopishtirish orqali tasviriy yaratish san'atidir.

Tasviriy faoliyat bolaning ichki kechinmalarini eng samimiy tarzda aks ettiradi .ba'zida u chizgan bulutlar g'amgin bo'lida , chunki yuragi xafa. Ba'zida esa ranglaqr juda yorqin – bu uning quvonchi , topgan do'sti yoki kechagi bayramning aks sadosidir . Rasm chizish bola uchun til o'rnida ishlaydi : u ko'nglini ranglar bilan gapirtiradi . Shuning uchun pedagoglar bolaga rasm chizishda erkinlik berishni- uning qalbini tinglashdek ulug' fazilat deb bilishadi.Eng muhimi , tasviriy faoliyat bolani tarbiyalaydi :sabr , diqqat, matonat ,tugallash odati , mehtatni qadrlash tuyg'ulari aynan shu jarayon shakllanadi. Bola o'zi yaratgan kichik rasmga qarab "men buni uddaladim" degan faxrni his qiladi. Bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchi va shaxs sifatida shakllanishid muhim qadamlaridan biridir. Bir gap bilan aytganda tasviriy faoliyatni bolalikning rangli ovozi deb adash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent , O'zbekiston , 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi . O'zbekiston Respublikasi.
3. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi



4. L.S.Vygotskiy- "san'at psixologiyasi "dan bo'limlar 1968 yil
5. N.A Vetlugina –"Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati"1961 yil
6. Maktabgacha ta'lim uchun "rasm chizish ","haykaltaroshlik", applikatsiya" dasturlari. 2020 yil
7. E.Toychiev – "maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish faoliyati"
- 8."Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat "- mualliflar jamoasi. 2017 yil.